



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

ANDIJON VA NAMANGAN VILOYATLARINING MARKAZLARIDA JOYLASHGAN DAVLAT XIZMATLARI MARKAZLARI BINOLARINING TIPOLOGIK TAHLILI

Bekturdiyev Izzat Maqsudovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası o’qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Andijon viloyati Andijon shahar va Namangan viloyatining Namangan shaharlaridagi davlat xizmatlar markazi binosi tipologiyasi, joylashuv tarxi, binoning avzalliklari va kamchiliklari tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье анализируется типология здания Бухарского городского центра государственных услуг Бухарской области, планировка местоположения, преимущества и недостатки здания.

Abstract

This article analyzes the typology of the building of the Bukhara City Public Services Center of Bukhara region, its layout, advantages and disadvantages of the building.

Kalit so’zlar

Andijon viloyati, Andijon shahar, Namangan viloyati, Namangan shahari, arxitektura, interyer, binoning qavatlar tarxi, dizayn, loyiha qurilishi, muammolar, avzalliklari, qurilish me’yorlari, bosh tarx rejaviy yechimlari.

Ключевые слова

Архитектура здания, интерьер, планировка этажей здания, дизайн, проектное строительство, проблемы, преимущества, строительные нормы, генерально-планировочные решения.

Keywords

Building architecture, interior, building floor planning, design, design construction, problems, advantages, building codes, general planning solutions.

Kirish


Andijon viloyati Andijon shahridagi davlat xizmatlari markazi binosi shaxarning Amir Temur ko'chasida joylashgan. Bina kvadratsimon tarzda loyixalangan. Binoning qurilish osti maydoni 900 m² bo'lib, umumiy maydonining 70 foizini tashkil qiladi. Qolgan maydonida mashinalar to'xtash maydoni va ko'kalamzor xududdan iborat. Bino simmetrik usulda loyixalangan. Binoning tarz qismini bezashda shiva va alufan materiallari ishlatilgan.(1-rasm)

Asosiy qism




1-rasm. Andijon viloyati Andijon shahar markazida joylashgan Davlat xizmatlari markazi binosining tarz loyihasi

Binoning qavatlar tarxi asosan ikki qavatdan iborat. Birinchi qavatida fuqarolarga asosiy xizmat ko'rsatish bo'limlari loyixalangan. Davlat xizmatlari markazi binosiga kiraverishda vestibyl joylashgan. Birinchi qavat faye orqali asosiy zalga o'tiladi. Markazning deyarli barcha fuqarolar uchun xizmatlari shu zalda joylashgan. Binoga kiraverish o'rtada fuqarolar uchun va xodimlar foydalanish uchun zinapoyalar joylashgan. Binoning atrofida texnik xonalar ya'ni kuzatuv xonasi, qozonxona, nikoxdan o'tkazish xonasi, natarius, elektron kutubxona, muxirxona, bufet, advakat, masofaviy kuzatuv xonasi, kichik bank filiali uchun xonalar joylashtirilgan. (2-rasm)



2-rasm. Andijon viloyati Andijon shahar markazida joylashgan Davlat xizmatlari markazi binosining birinchi qavat loyihasi

Andijon viloyati Andijon shaxri Davlat xizmatlari markazi binosi fuqarolarga xizmat ko‘rsatish uchun ikkita qismga ajratib loyixalangan. Bu bo‘limlar birinchi va ikkinchi qavatda joylashgan. Binoning ikkinchi qavatida ikkinchi bo‘lim joylashgan. sanitar uzellar, farroshlar xonasi, omborxona, yurist xonasi, kabulxona, direktor xonasi, bugalteriya, bino markazida umumiy xizmatlar uchun zal joylashgan. (3-rasm)



3-rasm. Andijon viloyati Andijon shahar markazida joylashgan Davlat xizmatlari markazi binosining ikkinchi qavat loyihasi


Namangan viloyati Namangan shaxar davlat xizmatlari markazi binosi shaxar markazining Alisher Navoiy shox ko‘chasiga yaqin xududda joylashgan. Bino to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida loyixalangan. Bino to‘rt qavat va yerto‘la qavatdan iborat. Binoning yerto‘la qavati va bininchi qavatida Davlat xizmatlari markazi joylashgan. Binoning tarz qismi zamonaviy tarzda loyixalangan. Binoni bezatishda asosan shisha va alufan maxsulotlaridan ishlatilgan. Bino ko‘p tarmoqli xisoblanib, boshqa tashkilotlar xam yuqori qavatlarda joylashgan. Binoning qurilish osti maydoni 1512 kv metrni tashkil qiladi. (4-rasm)



4-rasm. Namangan viloyati Namangan shahar markazida joylashgan Davlat xizmatlari markazi binosining tarz loyihasi


Namangan shahar davlat xizmatlar markazi to‘rt qavatli binoning birinchi qavatida va yerto‘la qavatida joylashgan. Binoning yerto‘la qavatida bino uchun

o‘rdamchi xonalar joylashtirilgan. Ya’ni xujjatlar uchun omborxonalar, farroshlar xonalari, texnik xonalar, isitish sovitish uskunalari uchun aloxida xonalar, binoning ikki tomonida zinapoya va liftlar loyixalangan.(5-rasm)



5-rasm. Namangan viloyati Namangan shahar markazida joylashgan Davlat xizmatlari markazi binosining yerto‘la qavat loyihasi

Namangan shahar davlat xizmatlari markazi binosining birinchi qavatida fuqarolar uchun barcha xizmatlar mujassamlashgan asosiy xizmat ko‘rsatish zali va xodimlar xonalari joylashgan. Binoga kiraverishda faye joylashgan bo‘lib shu orqali asosiy zalga o‘tiladi. Asosiy zal umumiy yaxlit maydon ximoblanadi. Zalda fuqarolar kutish joylari, sanuzellar, bank, natarius, xodimlar uchun xonalar, direktor xonasi, bugalteriya, majlislar xonasi, kamera xonasi, va boshqa xizmat to‘rsatish xonalari joylashtirilgan.(6-rasm)



6-rasm. Namangan viloyati Namangan shahar markazida joylashgan Davlat xizmatlari markazi binosining birinchi qavat loyihasi

Yakuniy xulosa

Andijon va Namangan DXM binolari arxitekturaviy jihatdan ikki turli reja va dizayn strategiyasini ifodalaydi:

Andijon: Kichik, ikki qavatli va simmetrik markaz — klassik, aniq struktura bilan fuqarolar uchun qulay va samarali xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan.

Namangan: Keng, yerto‘la va to‘rt qavatli zamonaviy bino — yuqori xizmat sig‘imi, funktsional diversifikatsiya, kompleks xizmatlarni bir binoda jamlash imkoniyati bilan ajralib turadi.

Ikkala bino ham o'z xizmat joyi kontekstida optimal tanlangan arxitekturaviy yechimlarni taqdim etadi. Andijon — to'g'ri tipologik markazlashtirish va soddalikka urg'u berarkan, Namangan — ko'p funksiyali, ko'lamli, integrativ va zamonaviy makon yaratishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Uralov, A. S., & Kushmanov, T. F. (2013). Binolar tipologiyasi. O'quv-qo'llanma.
2. Ubaydullayev, X. M., & Inog'omova, M. M. (2009). Turar-joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari. Darslik.
3. Qodirova, S. A., & Abdujabbarova, M. T. (2020). Turar-joy va jamoat binolarini loyihalash. Darslik.
4. Qodirova, T. F. (2012). San'at, arxitektura va shaharsozlik tarixi. Darslik.
5. Miralimov, M. M. (2016). Arxitektura. O'quv-metodik qo'llanma.
6. Alexander, C., Ishikawa, S., & Silverstein, M. (1977). A Pattern Language: Towns, Buildings, Construction. Oxford University Press.

BUXORO VILOYATI BUXORO SHAHAR DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI BINOLARINING TIPOLOGIK TAHLILI

Bekturdiyev Izzat Maqsudovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Arxitektura"
kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Buxoro viloyati Buxoro shahar davlat xizmatlar markazi binosi tipologiyasi, joylashuv tarxi, binoning avzalliklari va kamchiliklari taxlil qilingan.

Аннотация